

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



"Tasdiqlayman"
Innovatsiyalar va innovatsiyalar
yicha prorektor
T.H.Rasulov
2023 yil

13.00.01 - PEDAGOGIKA NAZARIYASI. PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR
TARIXI

Buxoro – 2023 yil

KIRISH

I Blok - Pedagogika nazariyasi va tarixi

Ushbu dastur pedagogika nazariyasi va tarixi fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta'lim nazariyasi), ta'lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkili etish shakllari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shkal, metod va vositalari, ta'lim muassasalarini boshqarish, korreksion pedagogika asoslarini o'z ichiga qamrab oladi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad — bo'lajak ilmiy mutaxassislarni zamonaviy pedagogik fanlarning nazariy asosdagi bilimlar bilan qurollantirish.

Fanning vazifasi — yoshlarni g'oyaviy-makruraviy tarbiyalash va ta'limni samarali tashkili etishga o'rgatish; pedagogik faoliyatni to'la anglay olish qobiliyatini shakllantirish; pedagogik faoliyatni tashkili etishda innovatsion yo'nalishlarni o'rganishdan iborat.

Asosiy qisim

O'qituvchilik kasbining jamiyada tug'gan o'rni. Pedagogikning nazariy asoslari. Umumiy pedagogik jarayonning nazariy asoslari. Didaktika (ta'lim nazariyasi): ta'lim jarayoni, qonuniyatlari, tamoyillari, mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkili etish shakllari, ta'lim olganlarni tashkili etish. Tarbiya nazariyasi: tarbiya jarayoni, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari: maqsadi va vazifalari, mazmuni va mohiyati, shkal, metod va vositalari. Ta'lim muassasasini boshqarish. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi va turlari, ta'lim muassasasi menejmenti, ta'limni boshqarish tamoyillari, ta'limning ichki boshqaruv. Korreksion pedagogika asoslari: korreksion pedagogikning shakllanishi va rivojlanishi, korreksion pedagogikning sohalari.

Pedagogik kasbining jamiyatdagi o'rni.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchilar tayyorlash istiqbolari. Demokratik jamiyada pedagogik kasbi. O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar.

Pedagogika fan sifatida. Pedagogikning tadqiqot metodlari

Pedagogika jilimoiy fan sifatida. Pedagogikning asosiy kategoriya va tushunchalari. Pedagogik fanlarning tuzilishi. Pedagogik fanlar tizimi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif.

Shaxs rivojlanishining qonuniyatlari.

Shaxs haqida tushuncha. Shaxs rivojlanishi. Shaxs rivojlanishining omillari. Bola shaxsi tarbiya ob'ekti va sub'ekti sifatida. Shaxs faolligi.

Yaxlit pedagogik jarayon

Pedagogik tizimlar va ularning shakllari haqida tushuncha. Ta'lim tizimlariga umumiy tavsif. Pedagogik jarayonning mohiyati. Pedagogik jarayon yaxlit hodisa sifatida. Yagona pedagogik jarayoni yaratish ma'niigi va sharoitlari.

Didaktika pedagogik ta'lim nazariyasi ifatida.

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikning maqsad va vazifalari.

Tuzuvchi:

Olimov Sh.Sh. — "Pedagogika" kafedrasi mudiri, p.f.d., professor.

Taqribchilar:

Adizov B.R. — "Pedagogika" kafedrasi professori, p.f.d.

O'rinov U.A. — BukMTI professori, p.f.d.

Dastur Pedagogika kafedrasining yig'ilishida mulokama qilingan va tasdiqlangan. (Bayoynoma №6. 03.10.2023 y.)

Ta'lim jarayoni yagona tizim sifatida. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari.

Ta'lim jarayoni mohiyati. O'rganish bilish faolligi shakli sifatida. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi. o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Sharq va G'arb mutafakkirlarining gnoskologik g'oyalari ta'lim jarayoni asosi sifatida. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmuni.

Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni. Ta'lim mazmunini tashkil etish konsepsiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejining o'quv rejasi. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari tavsifi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejining davlat ta'lim standartlari.

Ta'lim metodlari va vositalari.

Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Sharq mutafakkirlari ta'lim metodlari haqida. Ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

Ta'limni tashkil qilish shakllari va turlari. Dars – maktabda ta'limni tashkil qilishning asosiy shakli.

Ta'lim turlari. Ta'limni tashkil qilish shakllari haqida tushuncha. Ta'limni tashkil qilishning an'anaviy sinf-dars shakli. Dars turlari va tuzilishi. Ta'limni tashkil qilishning noan'anaviy shakllari: o'quv dialogi, munozara, didaktik o'yinlar, trening va boshq. Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari ma'ruza va seminar. O'quv ishlarini tashkil qilishning darsdan va ta'lim muassasasidan tashqari shakllari.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati. Tarbiya jarayonining tizimi va tuzilishi hamda uning qonuniyatlari. Tarbiya jarayoni mazmuni. Tarbiya tamoyillari.

Jamoa tarbiya ob'ekti va sub'ekti sifatida

Jamoa tushunchasi. Bolalar jamoasining shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. Bolalar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. Bolalar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Tarbiyaning umumiy metodlari.

Tarbiya metodlari mohiyati va uning tasnifi. Ijtimoiy ongning shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish metodlari va xulq-atvorni tuzatish. Tarbiyada nazorat, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. O'quvchilarning aqliy tarbiyasi.

Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g'oyani shakllantirish o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. Aqliy tarbiya. Aqliy tarbiyaning maqsadi va mazmuni. Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish – aqliy tarbiyaning asosi.

Fuqarolik tarbiyasi. Huquqiy tarbiya.

Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari. Fuqarolik tarbiyasi funksiyalari. O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasi. Vatanparvarlik va

baynalmilallik – fuqarolik tarbiyasi asosi. Huquqiy tarbiya. Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi.

Mehnat tarbiyasi. Iqtisodiy tarbiya.

Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Iqtisodiy tarbiya mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida.

Axloqiy tarbiya.

Axloq ijtimoiy ong, ta'sir etish, va tarbiya shakli sifatida. Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Axloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Oilaviy hayotga axloqiy tayyorgarlik.

Estetik tarbiya.

Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari.

Ekologik tarbiya.

Ekologik tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Ekologik tarbiyaning shakl va metodlari. O'quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish.

Jismoniy tarbiya.

Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Jismoniy tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari.

Oila tarbiyasi asoslari.

Oila, uning tarbiyaviy funksiyasi. Oilaviy tarbiyaning huquqiy asoslari. Oila mustahkamligi haqida davlatimiz g'amxo'rliqi. Sharq mutafakkirlari oilaviy tarbiya haqida. O'quvchilarning o'quv faoliyatida oilaning g'amxo'rliqi. Oilaviy tarbiya qoidalari.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Uzluksiz ta'lim tizimi, uning tarkibiy qismlari va darajasi. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

Ta'lim muassasasi menejmenti.

Ta'lim muassasasi menejmenti haqida umumiy tushuncha. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji haqidagi Nizom. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilar qabul qilish. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va mazmuni. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish. Ta'lim muassasasi Ustavi rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Pedagogik kadrlar malakasini oshirish va ularni attestatsiyadan o'tkazish, yosh o'qituvchilar bilan ishlash.

Korreksion pedagogika asoslari.

Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar. Boshqa kamchiliklar (eshitish, ko'rish, nutq). O'zbekiston Respublikasida anomal bolalarning ijtimoiy holati.

Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha bo'lgan davrlardagi ta'limning tashkil topishi, yo'nalishi va yuksalish darajalari. "Avesto" ta'limotiga asoslangan ta'lim-tarbiya

Pedagogika tarixi fanining maqsadi, vazifasi, bahsi, boshqa fanlar bilan aloqasi, manbalari va metodologik asoslari. Pedagogika tarixidan davrlashtirish muammolari va uning barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati.

Eng qadimgi manbalarda inson ta'lim - tarbiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan holatlar, fikrlar, qarashlar va ta'limotlar. Tarbiya masalalarining kelib chiqishdagi manbalar va ularning insonning shakllanishidagi mehnat faoliyati bilan bog'liqligi. Ibtidoiy jamoa tuzumlaridagi

odamlarning turmush tarzi va u davrdagi tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari.

"Avesto" ga asoslangan pedagogik ta'limot va uning hozirgi zamon ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati.

VII-IX asrlarda Movarounnahrda ta'lim, tarbiya va o'quv muassasalari
VII-IX asrda Movarounnahrda dastlabki ta'lim yo'nalishlari va islom dinining Ohdiyotiga kirib kelishi bilan bog'liq holdagi ta'lim mazmuni, shakli va ular asosida shakllana boshlagan ta'lim tizimi. Musulmon maktab va madrasalardagi ta'lim-tarbiya tizimining mazmuni-mohiyati. "Qur'oni Karim" va "Hadisi Sharif" ilohiy va muqaddas kitoblari asosidagi falsafiy axloqiy ta'lim-tarbiyaning mazmuni-mohiyati.

"Ilk uyg'otish davri" (IX-XII asrlar ta'lim-tarbiyasi)
Al-G'azaliy islom falsafasi va pedagogikasining asoschisi sifatida. "Kimyo'i saodat" asari va uning ta'lim taraqqiyotidagi o'rni. Hadis ilmining paydo bo'lishi va uning ta'lim-tarbiyaviy jihatlarini boyitishda Imom al-Buxoriy, Al-Termiziy, Az-Zamaxshariy, Al-Marg'iloniy, Abu Nasr al-Moruriy, Xoja Ahmad Yassaviy va shu kabi hadis ilmi sohiblarining xizmatlari. Imom al-Buxoriyning "As-Sahih", "Al-adab al-mufrad" asarlarining inson ma'naviy kamolotini topishidagi o'rni.

Sharq xalqlari ta'limi taraqqiyotida Sharq ulug' allomalarining ta'limiy-axloqiy asarlarining paydo bo'lishi va unda Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Rudakiy, Nozir Xisrav, Yusuf Xos Xojib, Xoja Yusuf Hamadoniy, Mahmud Qashg'oriylarning boy ma'naviy meroslarining qisqacha mazmuni-mohiyati.

Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy va Ibn Sinolarning ilmiy merosi va ularning ta'limidagi didaktik ta'limotlari. Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon al-Beruniylarning ijtimoiy pedagogik ta'lim uchin didaktik qarashlari va g'oyalarning qisqacha boyoni.

Mahmud Qashg'oriy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiylarning ta'limiy-axloqiy, Mahmud Qashg'oriyning "Devoni lug'ati turk" asari va uning ta'limiy ahamiyati. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u-bilig'" asari – turkiy tilida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid dastlabki asar sifatida.

Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-Haqoyiq" asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid muammolar yechimi haqida qisqacha ma'lumot.
Usmul Maoliy Kaykovusning "Qobusnoma" asari ta'limiy ahamiyatga ega paradigmalar sifatida ifodalangan.

XII-XIV asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar
XII-XIV asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik qarashlarning ismoli Jurg'oni, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin al-Koshibiy, Ali Qushchi, Najmiddin Kubro, Jurfy kabilar asarlarida ifodalangan.

Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davrida ilim-fan, ta'lim-tarbiyaning ravnag topishi. Sohibqiron Amir Temurning ma'rifiy qarashlari, ta'limga homiyiligi va ularning ta'lim taraqqiyotidagi ahamiyati.

Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi (madrasadagi ta'lim mazmuniga va ommaviy ta'limga, ya'ni dorilulomdagi ta'limga qo'ygan talablari va abservatoriyadagi ilmiy ishlari bilan O'rta Osiyoda dastlab akademiyaning tashkil etilishi) va tarbiyaviy qarashlari. Tabiiy fanlarni o'qitishni rivojlantirishi. Mirzo Ulug'bekning ilim-ma'rifa sohasidagi homiyliklari va uning davridagi ta'lim tizimi.

XIV-XVII asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik qarashlar
XIV-XVII asrlardagi ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari va ulardagi Qozizoda Rumiy, Bahovuddin Naqshband, Ya'qub Charxiy, Xoja Muhammad Parso, Xoja Axrori Valiy, Mahdumi A'zam, Abdulholiq G'ijduvoriy, Saif Ollayor, Sakkokiy, Qosim Anvar, Davlatshoh Samarqandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Poshshoxo'ja, Boborahim Mashrab, Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondanit, Mirzo Muhammad Haydar Do'g'lar, Abdulug'oziyxon, Muhammad Sharif Buxoriylarning xizmatlari.

Zahiriddin Muhammad Boburning ma'rifiy-axloqiy qarashlari. "Xatir Boburiy" va "Boburnoma" asarlarining didaktik xususiyatlari va ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati.

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davomiy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta'limiy-axloqiy qarashlari

Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davomiy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta'limiy-axloqiy qarashlari. Alisher Navoiyning adolat tamnasi haqidagi ta'limot va uning ta'limiy-axloqiy asarlarida ifodalangan g'oyalar.
Shuningdek, uning "Hayratil Abror", "Mabluh ul-qulub" asarlari va ularning ta'lim uchun, tarbiya uchun didaktik asos ekanligi. Alisher Navoiyning Davlat arbobi sifatida maktab va madrasalarga bo'lgan homiyiligi hamda ilim ahliga munosabatida ta'limni taraqqiy ettiruvchi fidoiy insonligi haqida va ularning ta'limni rivojlantirishidagi ahamiyati.

Abdurahmon Jomiyning "Tuxlat" – ul - Axror" asarida shaxs kamoloti masalasi taqini va uning barkamol avlodini shakllantirishidagi ahamiyati.
Jaloliddin Davomiyning "Axloq-i-Jolohiy" asari va uning ta'lim taraqqiyotidagi ahamiyati.
Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvalnomai Sultoniy" asari va uning ta'lim tarixidagi egallagan o'rni.

XVII-XIX asrlarda ta'lim-tarbiya va o'quv muassasalarining asosiy yo'nalishlari

XVII-XIX asrlardagi ta'lim-tarbiya yo'nalishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
XVII asrdan boshlab to XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan vaqtda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari davrlardagi ilim-fan va ta'lim-tarbiya Jahon olim Uvaysiy va uning ta'lim taraqqiyotiga qo'shgan xissasi. So'f Ollayor, Nodira, Ogahiy, Ahmad Donish, Muqimiyilarning ta'limiy qarashlari. Qizlar maktabining tashkil etilishi va undagi ta'lim-tarbiyaning mazmuni-mohiyati.

Muhammad Sodik Qoshg'ariy va uning "Odob as-solih" ("Yaxshi kishilar odobi") asari va undagi ta'limiy qarashlar.

XIX asrning ikkinchi yarmida va XX asr boshlarida ta'lim muassasalari hamda ulardagi ta'limiy qarashlar

Turkiston o'lkasida islom dunyo – tarbiyaviy muassasalarning an'anaviy tizimi. Turkistonda ta'limga bo'lgan e'tibor va uning o'ziga xos xususiyatlari. Musulmon maktablariga bo'lgan turlicha qarashlarning vujudga kelishi va ularning ta'lim taraqqiyotiga jolib ba'zan salbiy ta'sirlari.

Turkiston zaminida ilg'or pedagogik qarashlarning yuzaga chiqishi va unda Jahon Olim, Furgal, Said Ahmad Siddiqiyilarning ta'limiy qarashlari hamda ushbu qarashlarning joriy etilishida ularning pedagogik-tashkilotchilik faoliyatlari.

Turkiston diyorida jaddidchilik harakatiga asoslangan yangi usul ta'lim tizimining vujudga kelishi va ularning ta'lim tizimi takomillashuvidagi ahamiyati. Ismoli G'aspirali, Mahmudxo'ja Beshbudy, Munavvar Qori Abdurahmonxonov, To'lgan Xo'jayonov – Tavallio, Abdulla Avloniy, Abdurav Firit, Sadriddin Ayniy, Abdullahim Cho'pon, Abdulla Qodiriy, Ubaydulla Xo'jaev, Polvoniyoz Xo'jiyusupov, Ashurali Zohiriy, Abdullahim Burxonov – Munzir, Muhammadsharif So'fizoda, Musa Saidjonov, Boboaxon Salimov, Ibrat, Abdug'ofir Shokriy, Saidahmadxo'ja Siddiqiy – Ayziy, Obidjon Mahmudov, Fayzulla Xo'jaev, Saidozir Mirjalolov, Xoji Muin, Sattarxon Abdulg'aforov, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa martilaparvarlarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval" darsligi va uning ta'limiy ahamiyati.

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limot va tarbiya yo'nalishlari bo'yicha qarashlari hamda uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari va uning yaratilishi ta'siri. Asardagi asosiy g'oya va uning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati.

1917-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya ishlari

O'zbekistonda 1917-1924 yillardagi ma'naviy-madaniy muhit hamda milliy ta'lim tizimini shakllantirish borasidagi tashkiliy-pedagogik faoliyat.

Oliy ta'limning shakllanishi va kadrlar tayyorlash borasidagi ta'lim muammolarining hal bo'lishi. "Turkiston xalq dorifununi" (1917-1924y.) va "Doril muallimin" (1918 y.) tashkil etilishi.

Turkistonda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilganidan so'ng xalq ta'limi va mutaxassis kadrlar tayyorlash muammolari, mustabid tuzum davrida oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi, fan va madaniyat.

Ikkinchi jahon urishi yillarida O'zbekistonda xalq ta'limi va mutaxassis tayyorlash muammolari, urushdan keyingi yillarda xalq ta'limi va pedagogik fikrlar. XX asrning 70-80 yillarida O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi. O'zbek olimlari Habib Abdullaev, Ibrohim Hamroboev, Yolqin To'raqulov, Vosil Qobulov, Sadi Sirojiddinov, Toshmuhammad Sarimsoqov, Muhammadjon O'rozboev, Obid Sodiqov, Sobir Yunusov, Qori Niyoziy, Ibrohim Mo'minov, Yaxyo G'ulomov, Jondor Tulenov, Siddiq Rajabov, Iminjon Qodirov, Asqar Zununov va boshqalarning ilm-fan, ta'lim va madaniyatlarni rivojlantirishga qo'shgan hissalari.

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim-tarbiya va ularga mos qarashlar modernizatsiyasi

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimidagi islohotlar rivoji. Milliy ta'lim tizimini tashkil etishga qaratilgan muammolarining hal qilinishi.

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va unda ta'lim turlari.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi va uning tarbiyaviy qismlari.

Mustaqil yillarda ta'lim taraqqiyoti va uning mazmunini modernizatsiya qilishning ijtimoiy jihatidan zarurligi.

Jahon pedagogika fanining rivojlanish

Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya. Qadimgi Sharq davlatlari va Yunonistonda pedagogik fikrlarning vujudga kelishi. Qadimgi Sparta va Afina davlatlarida ta'lim-tarbiya va maktab. Qadimgi yunon faylasuf olimlari (Suqrot, Platon, Arastu, Demokrit, Pifagor) ning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari.

G'arbiy Yevropada ta'lim, maktab va pedagogik qarashlar (J.Russo, G.Pestolotsiy, A.Desterveg va boshqalar).

Yan Amos Komenskiy pedagogik tizimi va rus pedagog olimlari pedagogik qarashlari

Yan Amos Komenskiyning ijtimoiy pedagogik faoliyati va uning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari hamda darsliklari. Uning tomonidan ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablari va "Buyuk didaktika" asari hamda bu asarning ta'lim taraqqiyotidagi ahamiyati. Komenskiyning o'qituvchilik kasbi va pedagogik ta'lim haqidagi qarashlari.

M.V.Lomonosovning ilmiy-pedagogik faoliyati va uning ilm-fan hamda ta'lim taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.

M.I.Pirogov, L.N.Tolstoy, I.I.Beskiy, N.I.Novikov va boshqalarning ta'lim-tarbiya, maktab-maorif tizimiga qo'shgan hissalari va ularning pedagogik g'oyalari.

Ilg'or rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimi

Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim tizimi va ular taraqqiyotlarining asosiy yo'nalishlari. AQSH da ta'lim tizimining tuzilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Koreya, Rossiya, Ukraina kabi rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Rivojlangan xorijiy davlatlar va Mustaqil O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi hamkorliklar va ular natijalarining Vatanimizdagi ta'lim taraqqiyotiga ta'siri.

Foydalaniladigan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. -T., 2017. -B.39.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni. - T. 2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. (1-jild). - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 592 b.
4. Mavlonova R va boshq. Pedagogika. - T.: O'qituvchi, 2001.
5. Подласый И. П. Педагогика. В 2-х кн. - М.: ВЛАДОС, 2003.
6. Лихачев Б. Т. Педагогика. - М.: Юрайт, 2003.
7. Сластенин В.А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. П. Общая педагогика. В 2-х кн. - М.: ВЛАДОС, 2003.
8. To'xtaxodjaeva M., Nishonova S., Hasanboev J., Madyarova S., Kaldybekova A va bosh. Pedagogika. - T.: Moliya, 2008.
9. Abu Abdulloh ibn Ismoil al-Buxoriy. "Al-adab al-mufrat" ("Adab durdonalari"). -T.: - "O'zbekiston, 1990.
10. Abu Abdulloh ibn Ismoil al-Buxoriy. "Hadis".-T.: "Qomuslar bosh tahririyati", 1992.- 528 b.
11. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq".-T.: "O'qituvchi", 1996.
12. Abu Muhammad ibn Iso at-Termiziy "Ash-shamoilan-nabaviya".-T.: "Cho'lpon", 1993.
13. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri".-T.: "Xalq merosi nashriyoti", 1993.
14. Abu Rayhon Beruniy. "Hikmatlar".-T.: "Yosh gvardiya", 1973.
15. Alisher Navoiy "Mahbub al-qulub".-T.:1983.
16. Ahmad Yassaviy "Hikmatlar".-T.: "Adabiyot va san'at nashri", 1975.
17. Ahmedov A. Ulug'bek muhammad Tarag'ay.-T.: "Fan", 1991.
18. Baraton N., Aliqulov X. "O'rta Osiyo mutafakkirlari axloq haqida".-T.: "O'zbekiston", 1992.
19. Bozorov O., Shodiev D. O'rta Osiyo tasavvufi va axloqiy qadriyatlar.- Samarqand, "Zarafshon", 1972.
20. Zunnunov A. va boshq. "Pedagogika tirixi".-T.: "Sharq", 2000.
21. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tirixi.-T.: "O'qituvchi", 1997.
22. Yo'ldoshev J. G'. Xorijdagi ta'lim. T.: "Sharq", 1999.
23. Kaykovus. Qobusnoma.-T.: "Mcros", 1992.
24. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika.-T.: "O'qituvchi", 1975.
25. Munavvarov A.K. Pedagogika.-T.: "Kamalak", 1991.
26. Nishonova S., Hasanova B. Pedagogika tirixi. 1-qism.-T.: 2002.
27. Nishonova S., Hasanova B. Pedagogika tirixi. 2-qism.-T.: 2002.
28. Hasanboeva O. Pedagogika tirixidan xrestomatiya. - T.: "O'qituvchi", 1990.
29. Hasanboeva O., Hasanboev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. - T.: "O'qituvchi", 1997.
30. Hasanboev J. va boshq. Pedagogika. O'quv qo'llanma.-T.: "Fan", 2006.-284 b.
31. Hoshimov K., Avazov Sh., Hashimova M. Pedagogika tarixi 1- jild.- T.: 2001.
32. Hoshimov K., Avazov Sh., Hoshimova M. Pedagogika tarixi, 2-jild.- T.: 2001.
33. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi.- T.: "O'qituvchi", 1996.
34. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik.-2q.-T.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi" nashriyoti, 2005.-304 b.
35. Hoshimov K., Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi.-T.: "O'qituvchi", 1995.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Barkamol avlod orzusi / Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov va b. T., 1999
2. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: O'zbekiston, 2001.

3. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari – T., 2006.
4. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi – T.: O'quvchi, 1994.
5. Homova M. O'ila bolalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi – T., 1999.
6. Axiddinov R.Sh. O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi tizimini boshqarish xususiyatlari. – T.: O'ZPEFITI nashriyoti, 1997.
7. Djuraev R.X., Turqunov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. – T.: «Fan» nashriyoti, 2006.
8. www.pedagog.uz

II Blok - Pedagogik mahorat

Ushbu dastur pedagogik mahorat, uning o'quvchi faoliyatida tugagan o'rni; pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'quvchi mahorati; o'quvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat; o'quvchining kommunikativ qobiliyati; o'quvchi faoliyatida mulqot madaniyati va psixologiyasi; mulqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarining ustivorligi; o'quvchi va o'quvchi o'rtasidagi mulqot; pedagogik nazokat va odob-axloq; pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish texnologiyasi; Pedagogik texnika haqida tushuncha pedagogik texnikani shakllantirish uslublari kabi masalalarni qamrab olgan.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – tahsil oluvchilarni pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyati nazariyasi hamda amaliyoti bo'yicha bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlash.

Fanning vazifasi – tahsil oluvchilarda mulq madaniyati, pedagogik texnika, pedagogik madaniyatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Pedagogik mahorat uning o'quvchi faoliyatida tugagan o'rni. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'quvchi mahorati. O'quvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. O'quvchining kommunikativ qobiliyati. O'quvchi faoliyatida mulqot madaniyati va psixologiyasi. Mulqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarining ustivorligi. O'quvchi va o'quvchi o'rtasidagi mulqot. Pedagogik nazokat va odob-axloq. Pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish texnologiyasi. Pedagogik texnika haqida tushuncha pedagogik texnikani shakllantirish uslublari. Nuruq texnikasi va madaniyati. O'quvchining ta'lim jarayonidagi mahorati. O'quvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati. O'quvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash. Shaxsiy pedagogik tajribani to'plash tizimi.

Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'quvchi faoliyatida tugagan o'rni

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni asosida o'quvchi faoliyati mazmuniga qo'yiladigan talablar. O'quvchining umumiy madaniy saviyasi va qobiliyati. O'quvchilik faoliyatining tizimi, kasbiy mahorati haqida tushuncha. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. O'quvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Pedagogik bilimlar. Pedagogik nazokat. Pedagogik qobiliyat. Pedagogik texnika.

Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'quvchi mahorati masalalari

Eng qadimgi davrlardan eraminizning VII asrlarigacha bo'lgan davrlarda o'quvchi (murabbiy), shogird va ularning jamiyatdagi o'rni, pedagogik faoliyat borasidagi ijtimoiy qarashlar.

Sharq mutafakkirlari Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yusuf Xos O'g'ib, Kaykovus va boshqalarning ijodiy mezoslarida

mudarrislarni tanlash, ularga qo'yiladigan talablar, ularning mahorati, mulqot va muomala madaniyati, munosabatlarga kirishish mahorati, ularni egallashga qo'yiladigan talablar haqidagi ilg'or fikrlar.

Yunon va Rim faylasuflari Suqrot, Pluton (Alfotun), Demosten, Aristotel (Arastu) sitseron va Kivntilarning asarlarida pedagoglar hamda ularning notiqlik san'ati to'g'risidagi g'oyalar.

A.Komenskiy, A.Disterrerg, K.D.Ushinskiy va boshqalarning o'quvchi, uning kasbiy tayyorgarligi hamda pedagog mahoratining ta'lim-tarbiya rivojidagi a'holida o'rni borasidagi qarashlari.

O'quvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat

Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari. Empatiya va perspektiv qobiliyatlar. Didaktik tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, bilish va anglash qobiliyatlari. O'quvchi irodasi, sabot-loqati, maqsadga intilishi, o'z hatti-harakatlarining to'g'riligiga nisbatan qat'iy ishonchi, uning o'z-o'zini idora qilish hamda boshqalarga ta'sir o'tkazva olish qobiliyati, his-tuyg'ulari va kayfiyatini boshqarva olish, o'z zimmasiga javobgarlikni ola bilishi, ijodiy holatni tashkil eta olishi kabi sifatlari.

O'quvchining kommunikativ qobiliyati

Mulqot orqali ta'sir etish. Mulqotga kirishish. Aloqa o'rnatish (kommunikatsiya) tushunchasi, uning mohiyati, pedagogik ta'sir etish usullari. O'quvchi tomonidan mulqotga kirishish jarayonida qo'llaniladigan muomala uslublari. O'quvchining kommunikativ ko'nikmasi: "Yuzni o'qish san'ati", o'zgalar holatini tushuna olish, o'zini namoyon qila bilish, mulqot vositasi hamda so'zsiz holatda inson ruhini tushuna olish. O'quvchi tomonidan o'quvchi bilan mulqotda bo'lish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari: ishonirish va ma'qullash. Ishonirishning og'zaki shakllari: ogohlantiruvchi so'zlar, tezkir bilan ta'sir etish, ifro etishga undovchi buyruqlar, ta'qilangan iboralar, hazil orqali anglatish, ma'qullar yoki ayblash.

O'quvchi faoliyatida mulqot madaniyati va psixologiyasi. Mulqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarining ustivorligi

"Mulqot" atamasining falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik mohiyati, mulqot birligi. Pedagogik mulqot, uning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik mulqotni tashkil etish madaniyati. Pedagogik mulqotni tashkil etish boshqichlari va usullari. Pedagogik mulqot modullari ishlab chiqish. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik mulqot jarayonini boshqarish uslublari. Mulqot jarayonida tashabbusni boshqarish.

O'quvchi va o'quvchi o'rtasidagi mulqot

Dars hamda darsdan tashqari jarayonda o'quvchi va o'quvchilar o'rtasidagi mulqot, unga qo'yiladigan talablar.

O'quvchilar jamoasida ularning e'tiborlarini jalb etish va ijodiy kayfiyatlarini yaratishda o'quvchi mulqotining ta'siri va uning ahamiyati, o'quvchi bilan bo'lgan mulqot jarayonida o'quvchi tomonidan ishonirish va ta'sir etish usullaridan foydalanish. Mulqot jarayonini boshqarish uslublari. O'quvchi obro'si. Avtoritar uslubdagi mulqot. Liberal uslubning o'quvchi faoliyatida namoyon bo'lish xususiyatlari. O'quvchining demokratik uslubdagi mulqoti – o'quvchilar fikriga tayanish, ushbu fikrlarni ma'qullash shakti.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda berilgan mulqot turlari (do'stona mulqot, qo'rg'uv asosiga qurilgan mulqot, hazil-mutoyibaga asoslangan mulqot va boshqalar) haqida.

Pedagogik nazokat va odob-axloq

Pedagogik odob va pedagogik nazokat haqidagi tushuncha. Pedagogik nazokat tamoyillari va uning vazifasi. Pedagogik nazokat me'yor: ixtisos sohasidagi hurmat, pedagogik adolat, ixtisosga doir vijdon izzat-nafis va pedagogik oriyat. Pedagogik nazokat-o'quvchi ahloqning ijodiy ko'rinishi. Pedagogik nazokatning zarririgi. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyati. O'quvchining dars jarayonidagi nazokat. Nazokat va taktika.

Pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish texnologiyasi

Pedagogik nizolarning asosiy sabablari. Pedagogning perseptiv (o'quvchi, talabalarni tushunish) xatolari. Pedagogning o'quvchi-talabalar bilan ish yoki shaxsiy ish yuzasidan bo'ladigan kelishmovchiliklarni va ularni bartaraf etishning o'ziga xos xususiyatlari. Yosh pedagoglar faoliyatida odatda yo'l qo'yiladigan xatolar va ularni yengish yo'llari. Pedagogik nazokat. O'zaro uchraydigan nizolarni bartaraf etish texnologiyasi.

Pedagogik texnika haqida tushuncha pedagogik texnikani shakllantirish usullari

Pedagogik texnika-o'qituvchining fe'l-atvori, yurish-turishini tashkil etuvchi usullar majmuasi. Pedagogik texnika vositasi: verbal va noverbal kommunikatsiya. Pedagogik texnikaning tarkibiy qimlari. O'qituvchining o'z ruhiy holatini boshqara olish texnikasi. Ish va tashqi texnika. Psixotexnikaning ilmiy asoslari. Diqqatning taqsimlanishi, kuzatuvchanlik, muayyan ob'ektni tez ang'lay olish, aniq va yorqin tasavvur etish, badiiy sezgirlik. O'qituvchining tashqi qiyofasi va unga qo'yiladigan talablar.

Nutq texnikasi va madaniyati

Nutqning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Mutafakkirlar va pedagoglarning so'z va nutqning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va roli haqidagi qarashlari. Nutqning o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayonidagi asosiy bog'lovchi vosita ekanligi. Nutq organlari. Nutq apparati. Til va nutq. Og'zaki nutqning psixologik tuzilishi; maqsadi (nima uchun gapiryapman?), mazmuni (nima demoqchiman?). Nutq madaniyati haqida tushuncha, uning unsurlari. Nutq texnikasi: nafas olish, ovozni yo'lga qo'yish, uning tozalanishi, talaffuz, nutq sur'ati. O'qituvchining nutq mahoratini takomillashtirish yo'llari.

O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati.

O'qituvchining o'quvchilarni bilish (anglash) faoliyatini boshqarishdagi mahorati. Dars mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinishiga yordam beruvchi jihatlari, ularning qiziqish va faolliklarini oshirish ko'nikmasini hosil qilish. O'qituvchi faoliyatida ko'tarinki ruh, yaxshi kayfiyat, ishga bo'lgan hoxshining yetakchi o'rin tutishi va ularni hosil qilish yo'llari.

O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati

Tarbiyachi mahoratining mohiyati. Faoliyatni tashkil etishni oldindan tashhislash mahorati. O'quvchilarni o'rganish diagnostikasi. Jamoani o'rganishning asosiy mezonlari. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda o'qituvchining o'z-o'zini tekshirishga yo'naltirilgan diagnostikasining o'rni va ahamiyati. Tarbiyachi mahoratining tizimi: ijtimoiy, estetik, ahloqiy hamda texnologik. Tarbiyachi faoliyatining asosiy ko'nikmalari.

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish

Pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy tamoyillari: yaxlit holda yondashuv; faol muloqot; pedagogik harakatning xilma-xilligi; pedagogik ta'sirining ko'p qirraliligi; nazariy bilim va amaliy malakalarning o'zaro bog'liqligi. O'qituvchi mehnatini nazariy va amaliy jihatdan tashkil etish va uning o'qituvchi mahoratini shakllantirishdagi ahamiyati. Maqsadning qo'yilishi-pedagogik faoliyatni tashkil etishning tayanch unsuri: maqsadning izchilligi.

O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash

O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash pedagogik mahoratini shakllantirishning asosiy sharti sifatida. O'qituvchi faoliyatida o'z ustida ishlashning o'z-o'zini ang'lash va tarbiyalash faoliyati bilan o'zaro bog'liqligi. O'z ustida ishlash va o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik-pedagogik asoslari.

Shaxsiy pedagogik tajribani to'plash tizimi

O'qituvchining kasbga oid mahoratini shakllantirishda psixologik va pedagogik nazariyalarning ahamiyati. Jahon mamlakatlarida to'plangan pedagogik ma'lumotlarning

umumiy mazmuni. Pedagogik ma'lumotlarni maqsadga muvofiq ajratish ko'nikmasi va uni to'g'ri tanlay bilish mezonlari. Ilmiy-pedagogik ma'lumotlarni to'plashda hisoblash texnikasi va kompyuter xizmatidan foydalanish. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishga oid materiallarni to'plash. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va ularni umumlashtirish usullari.

Foydalaniladigan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati **Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**

1. Munavvarov A.K. Pedagogik qobiliyat va mahorat. – T.: O'qituvchi, 1998.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2010.- 312

b.

3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDP, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O'qituvchi, 1995.
2. Ochilov Malla. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2000.
3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'tkaziladigan rituellar tizimi (1-kitob) – Bobobekov H, Davletshin M.G., Ishmuxamedov R.J. va boshqalar – T.: Fan, 1999.
4. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'tkaziladigan udumlar va asosiy tadbirlar tizimi (2-kitob) – Bobobekov H, Davletshin M.G., Ishmuxamedov R.J. va boshqalar. – T.: Fan, 2005.

III Blok - Pedagogik texnologiyalar

"Pedagogik texnologiya" fani bo'yicha tuzilgan mazkur dastur pedagogik texnologiya, uning shakllanishi tarixi; pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari; ta'limning fanga yo'naltirilgan texnologiyalari; ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari; o'quvchilar faoliyati faolligini jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiya; pedagogik jarayonni tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya; rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari va tarbiya san'ati va texnologiyasini o'zida aks ettiradi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – tahsil oluvchilarni pedagogik texnologiyaga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Fanning vazifasi –bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; yangi texnologiya darajasida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash; zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish; pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Pedagogik texnologiya pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida. Pedagogik texnologiyalarning rivoji. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi shaxsi. Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari. Pedagogik tizim pedagogik texnologiyaning asosi. Pedagogik texnologiyalar tasnifi. An'anaviy texnologiyaning o'ziga xosliklari. Ta'limning fanga yo'naltirilgan texnologiyasi. Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi. O'quvchilar faoliyati faolligini jadallashtirish asosi-dagi pedagogik texnologiya. O'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya. Tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi texnologiyalar. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish.

Pedagogik texnologiya pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida.

Pedagogik texnologiya fan sifatida. Pedagogik texnologiyaning asosiy kategoriyalari. Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari. "Texnologiya" tushunchasi. "Pedagogik texnologiya" tushunchasining paydo bo'lishi. Pedagogik texnologiyaning tarixiy rivojlanish

davrlari. XX asrda pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi. Pedagogik texnologiyalar rivojining zamonaviy bosqichi.

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi shaxsi.

O'quvchi shaxsi ta'lim jarayonining ob'ekti va sub'ekti sifatida. Shaxs qiyofasining tuzilishi va uning to'rt darajasi: temperament, psixik jarayonlarning o'ziga xosligi, tajriba va shaxs yo'nalganligi. Bilim, ko'nikma va malakalar(BKM). Aqily harakat usulati(AHU). Pedagogning innovatsion faoliyati va uning tuzilishi.

Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari.

Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning o'ziga xos jihatlari: ilmiy, professional-tavsifiy (tavsiflash, o'quv jarayonini algoritmlash), professional-harakatli (o'quv jarayonini amalga oshirish).

Pedagogik texnologiyaning darajalari: texnologik, umumiy-pedagogik (umumiydidaktik), xususiy-metodik (fanga oid), lokal (modulli).

Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi: konseptual asos, mazmuni qism, professional qism – texnologik jarayon. Pedagogik texnologiyalarga qo'yiladigan talablar: tizimlilik, boshqaruvli, samaradorlik, ishlab chiqarish.

Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari: moddiy va ideal, dialektik va ideal, ilmiy va diniy, insonparvar va insonparvarlikka qarshi, pragmatik va eksistensial, erkin tarbiya nazariyasi va boshqalar.

Pedagogik tizim pedagogik texnologiyaning asosi.

Pedagogik jarayon tizim sifatida. Pedagogik texnologiya tizimli yondashuv sifatida. Ta'lim texnologiyalarning tarkibiy qismi. Pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari. Pedagogik texnologiyalar tasnifi: qo'llanilish darajasiga ko'ra: falsafiy asoslarga ko'ra, asosiy omillari bo'yicha; ilmiy konsepsiyalar bo'yicha; bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turiga ko'ra va b.

An'anaviy ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

An'anaviy sinf-dars texnologiyasining farqli belgilari. An'anaviy ta'limning tasnifiy tavsifi. An'anaviy ta'lim tamoyillari. An'anaviy ta'lim mazmuni va metodikasining o'ziga xosliklari. Ta'limning an'anaviy shakllarining ijodiy va salbiy tomonlari.

Ta'limning fanga yo'naltirilgan texnologiyasi.

To'liq o'zlashtirish texnologiyasi va M. V. Klarin materiallari bo'yicha to'liq o'zlashtirish metodikasi. To'liq o'zlashtirish texnologiyasining asosiy tavsifi. Ta'limning mazkur texnologiyasining ketma-ketlik qoidasi.

Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi.

"Hamkorlik pedagogikasi" texnologiyasi va uning mazmuni va metodika-sining o'ziga xosliklari. Bolega shaxs nuqtai nazaridan yondashuv; bilim, ko'nikma va malakalarni umumlashtiruvchi ta'lim; atrof-muhitni pedagogizatsiyalash. Tarbiya konsepsiyasi. Frenc maktabidagi ta'lim texnologiyasi.

O'quvchilar faolligini jadalashitirishga asoslangan pedagogik texnologiya.

O'yin texnologiyalari va ularning o'ziga xosliklari. O'rganuvchi, nazorat qiluvchi, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, fanga oid, rolli, ishoop va b.

Muammoli ta'lim va uning o'ziga xosliklari: muammoli vaziyatlarni yaratish, faol bilish faoliyati, murakkab masalalarni mustaqil izlash va hal etish va b.

O'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya.

Tabagialashirilgan darajadagi texnologiya: individual o'ziga xosliklari, yoshi, qiziqishlari, aqily rivojlanish darajasi, sog'lomlik darajasi va b.

Individual ta'lim texnologiyasi: ta'lim har bir o'quvchining qobili-yatlari bilan bog'liqlikda olib boriladi.

Axborot texnologiyalari: ta'limiy va nazorat qiluvchi dasturlar. Ta'limning jamoaviy va guruhli texnologiyasi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari

Bolaning intellektual qobiliyatini rivojlantirish – barcha rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarining asosi.

L. V. Zankovning rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi va uning nazariy bilimlarning hal qiluvchilik roli tamoyili.

D. B. Elkonina va V. V. Davydovlarning rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi va ularning mashg'ulotlardagi o'quvchilarning maqsadga yo'naltirilgan faol o'quv faoliyatini tamoyili.

Interfaol texnologiyalar. Texnologik karta.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashitirish.

Insonparvarlik pedagogikasi. Tarbiya san'ati va texnologiyasi. Yaxlit yondashuv. Tarbiyaviy ish.

Foydalaniladigan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yhati

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar – Qarshi: Nasaf, 2000.
2. Tolpov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: 2005.
3. Sayidammedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar – T.: Molitva, 2003.
4. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDP, 2005.

5. Koleshenko A. K. Ensiklopediya pedagogicheskix texnologiy – SPb.: KARO, 2005.
6. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar – T.: 1999.
7. Selevko G. Pedagogicheskije tekhnologii na osnove didakticheskogo i metodicheskogo usovershenstvovaniya UVP – M.: 2005.

8. Selevko G. Pedagogicheskije tekhnologii avtorskix shkol – M.: 2005.
9. Pedagogicheskije tekhnologii / Pod red. Kukushina V. S. – M.: 2006.
10. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Podlasny I. P. Pedagogika V 2 kn. – M.: VILADOS, 2003.
2. Kaldibekova A. S., Xodjaev B. X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari – T.: TDP, 2006.
3. Ishmuhamedov R. J. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya (o'zbek va rus tillarida) – T.: UDAP, 2004.
4. Ishmuhamedov R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDP, 2005.

BAHOLASH MEZONLARI

"Pedagogika va psixologiya" ikkinchi mutavassitlikka kiruvchilar uchun simovlar yozma usulda o'tkaziladi. Har bir variant 4 savoldan iborat. Variantdagi 4 ta savolning har biridan olish mumkin bo'lgan maksimal ball 25 ga teng bo'lib, jami 100 ball to'plash mumkin.

Har bir savolga javob to'g'ri va to'liq yoritilsa, pedagogika nazariyasi va tarixi, umumiy psixologiyaga doir zamonaviy nazariyalarni bilishi, mustaqil, aniq faktlar asosida muammolarga ijodiy yondashgan holda yoritilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan bo'lsa, o'zlashtirish kursori 21,5-25 ball oraligida baholanadi.

Savolga to'g'ri javob bersa, ilmiy-amaliy jihatdan asosli mantiqiy yoritilgan bo'lsa, biron bugungi ta'lim va tarbiya jarayoni yangilanishlar amaliyoti bilan bog'lashda ayrim nomtajiqlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 21-18 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga asosan to'g'ri javob bersa, biroq quyilgan masalaning mohiyati, mazmuni, natijalari yuzaki yoritilsa, fikr-mushohada bayonida tarqoqlik kuzatilsa, uzlashtirish kursatkichi 17,5-14 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga javoblar noto'g'ri bersa, o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirilgan bo'lsa yoki savollarga, umuman, javob yozilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-13,5 ball oralig'ida baholanadi.

T.r.	Umumiy ball	Baho	Talabaniy bilim darajasi	Xususiy ball
1	21,5-25	A'lo (86-100)	Quyilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, siyosiy islohotlar va jarayonlarning mazmun-mohiyati to'liq ochib berilgan.	8-8,5
			O'zbekistonda ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tatbiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi.	7-7,5
			Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar qilingan.	5-6,5
			Imlo va stilistik xatolarga yo'l quyilmagan.	1,5-2,5
2	18-21	Yaxshi (71-85)	Javob to'g'ri yozilgan, unda siyosiy bilimlar asosli yoritilgan, ammo sana va sonlarda chalkashliklarga yo'l quyilgan.	6-7
			Javobda talabaniy mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi.	5,5-6
			Ijodiy yondashuv mavjud. Talaba muammoni tahlil qilish qobiliyati ega.	3,5-4 3-4
3	14-17,5	Qoniqarli (55-70)	Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan.	5-6
			Fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatiladi.	4-4,5
			Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan.	3-4
			Tasavvurga ega, lekin tahlil yetarli emas.	2-3
4	0-13,5 gacha	Qoniqarsiz (0-54)	Savol buyicha aniq tasavvurga ega emas.	0-13,5
			Umuman javob yozilmagan. Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan. O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan	

Kafedra mudiri



P.f.d., prof. Sh.Sh.Olimov